# MISRDAGI SUV OSTI ARXEOLOGIYASI TADQIQOTLARIDAN

**Abdualimova Zilola**
**Rayimjonov Ismoil**
**Aliboyev Dilshod**
*Guliston davlat universiteti o'qtuvchilari.*

**Annotatsiya:** *Misr suv osti arxeologiyasi tadqiqotlari dunyo arxeologiyasida alohida o'rin tutadi. Nil daryosi, Qizil dengiz va O'rta yer dengizi bo'yidagi qadimiy portlar, cho'kkan shaharlar, ibodatxonalar va kemalar orqali Misrning qadimiy dengizchilik va xalqaro savdodagi o'rni aniqlanmoqda. Xususan, Abukir ko'rfazida joylashgan cho'kkan Geraklion va Kanopus shaharlarining topilishi bu sohadagi muhim yutuqlardan biridir. Ushbu tadqiqotlar orqali qadimgi misrliklarning diniy marosimlari, savdo aloqalari va urbanistik tuzilmalari haqida yangi ma'lumotlar olinmoqda. Misrdagi suv osti arxeologiyasi loyihalari ko'pincha zamonaviy texnologiyalar, 3D xaritalash va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Misr, suv osti arxeologiyasi, Geraklion, Kanopus, Abukir ko'rfazi, qadimgi portlar, cho'kkan shaharlar, xalqaro savdo, diniy yodgorliklar, 3D xaritalash, arxeologik tadqiqotlar.*

**Annotation:** *Underwater archaeological research in Egypt holds a significant place in global archaeology. Ancient harbors, sunken cities, temples, and shipwrecks found along the Nile, the Red Sea, and the Mediterranean coast have revealed Egypt's maritime history and role in international trade. Notably, the discoveries of the sunken cities of Heracleion and Canopus in Aboukir Bay stand out as major achievements. These investigations have provided new insights into ancient Egyptian religious practices, trade networks, and urban planning. Underwater archaeology projects in Egypt frequently incorporate advanced technologies such as 3D mapping and are* often carried out in collaboration with international teams.

**Keywords:** *Egypt, underwater archaeology, Heracleion, Canopus, Aboukir Bay, ancient harbors, sunken cities, international trade, religious monuments, 3D mapping, archaeological research.*

Tarixdan maluki  Misr insoniyat tamadduni (sivilizatsiyasi)ning ilk makonlaridan biri (Qadimgi Misr). Afrikaning shimoli-sharqida, Nil daryosining quyi oqimida joylashgap qadimgi davlat.

Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashagan. Mil. avv. 10-6 ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq

esa baliq ovlash bilan shug'ullanishgan. Ular orasida qad. som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar bo'lib, ularning aralashuvidan mil. av. 4-ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan. Aholi nufuzining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o'tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to'g'onlar qurish zaruriyati tug'ilgan, buning uchun esa o'zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro'y berib, urug' zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podsholikalarga aylangan. Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o'rtasidagi kurash natijasida, shimolda Quyi Misr, janubda Yuqori Misr podsholiklari tuzilgan. Mil. av. taxm. 3-ming yillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. M.ning keyingi tarixi 4 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podsholik (mil. av. taxm. 3000— 2800), Qadimgi podsholik (mil. av. taxm. 2800—2250), O'rta podsholik (mil. av. taxm. 2050— 1700), Yangi podsholik (mil. av. 1580—1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (mil. av. taxm. 1070—332). 3- 4 asrlarda Misr Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. Rim imperiyasi yemirilgach (395), Vizantiyaning bir viloyati bo'lib qoldi.7 asr boshlarida butun Misr aholisi Vizantiyaning rasmiy pravoslav cherkoviga qarshi bo'lgan xristianlarning monofisit mazhabini qabul qildi. Aholi ko'chiligini (qibt) tilida so'zlashar edi. Shu davrda Misrni *sosoniylar*, 639—642 yillarda esa arablar bosib oldi va mamlakatda islom dini tarqala boshladi. Keyinchalik *tuluniylar* (868 — 905), *abbosiylar* (905-935), ixshidiylar (935-969) sulolalari hukmronlik qildi. *Fotimiylar* davri (969—1171 )da Falastin, Shom (Suriya) va G'arbiy Arabiston Misrga qaram bo'lgan. 1113 yil. salib yurishi qatnashchilari Misrga bostirib kirdi. Shimolda Suriya va Iroqdagi saljuqiylar noibi Nuriddin Mahmud ibn Zangi (1146—74) salibchilarga qarshi kurashda Fotimiy xalifa Adid (1160—71) ga katta yordam berdi. Buning evaziga xalifa uni vazir qilib tayinladi (1169). 1171 y. ayyubiylar sulolasi (1171 — 1250) ning asoschisi Salohiddin taxtga chiqdi. 1174 y. esa u sulton nomini oldi. 1187 y. Suriya va M. harbiy kuchlari birlashib, salib-chilarg'a qaqshatqich zarba berdi va Falastin bilan Suriyani ulardan ozod qildi. Misrda XIII asr yarmigacha Ayyubiylar, XIV-XV asrlarda mamluklar hukmronlik qildi.

1517 y. turk sultoni Salim I Misrni egallab, uni Usmonli turk davlati tarkibiga qo'shib oldi. 18 asr. ikkich yarmidan Usmonli turk saltanati tanazzulga uchray boshladi. Bundan foydalapgan mam-luk beklaridan Alibey mustaqil dav-lat tuzishga erishdi (1769), Alibeyning vafotidan so'ng taxt uchun kurash kuchaydi. 18 asr. oxiri — 19 asr. boshlarida Fransiya va Angliya Misrni bosib olishga harakat qildilar. 1798 y. M.ni Napoleon armiyasi egalladi. 1801 y. da ingliz floti fransuz floti ustidan g'alabaga erishdi. 1805 yilda hokimiyat Muhammad Ali posho qo'liga o'tdi.

Muhammad Ali Misrni kuchli, mustaqil dav-latga aylantirish maqsadida mamluk beylariga qarshi kurash olib bordi. Mamlakat iqtisodiyotining asosi bo‘lgan q.x.ni rivojlantirdi. Bu davrda birinchi movut, to‘qimachilik fbrikalari, metallurgiya, qand, oyna chiqariladi. Xalqning kurashi natijasida ingliz protektorati bekor qilinib, Misr mustaqil podshohlik deb e’lon qilindi (1922). 1923 y. M. konstitutsiyasi qabul etildi. Bu konstitutsiya parlament tuzishni nazarda tutdi. U ayrim erkinliklar siyosiy tashkilotlar tuzish va matbuot erkinligini berdi, shu bilan birga, podshohga deputatlar palatasini tarqatish, parlament chaqiriqlari muddatini surish, vazirlarni tayinlash va bo‘shatish huquqini ham berdi. Shunday bo‘lsada, Angliya Misrda o‘z mavqeini, ya’ni davlat idoralari hamda harbiy kuchlar ustidan nazoratini, mamlakatda ingliz armiyasini saqlab qoldi. Parlament saylovida «Vafd» partiyasi g‘alabaga erishdi va Zag‘lul Sa’d boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Biroq mamlakatda milliy ozodlik kurashi to‘xtamadi.

1936 y. Angliya bilan Misr o‘rtasida shartnoma tuzildi. Shartnomaga muvofiq, inglizlar Misrni bosib olishni to‘xtatdilar, lekin mamlakatda harbiy bazalar va armiya saqlash huquqini oldilar. 2-jahon urushi davrida Misr Italiya-Germaniya va Angliya armiyalari o‘rtasidagi jang maydoniga aylandi. Urushdan keyin M.da milliy ozodlik harakati yanada kuchaydi. Arab-Isroil urushi davri (1948—49)da mamlakatda reaksiya avj oldi, so‘l vafdchilarni, talabalar harakati rahbarlarini qamash boshlandi. Bunga qarshi xalq harakati yanada avj oldi. Parlament 1936 y. gi Angliya-Misr shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shundan keyin Angliya Misr.ga qarshi agressiya uyushtirdi. Misr xalqi mustam-lakachilarga qarshi partizan urushini boshladi. 1952 y, 23 iyulda Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi «Zubbot al-ahror» («Ozod zobitlar») uyushmasi armiyaga tayanib, davlat to‘ntarishi o‘tkazdi. Davlat hokimiyati Inqilobga rahbarlik kengashi ixtiyoriga o‘tdi. Budan keyingi davirda ko’pgina tarixiy jarayonlarni ko’rish mumkin shuning uchun Misr tarixini o’rganishda ko’pgina izlanishlar olib borilgan shular qatorida suv osti arxeologiyasi tadqiqotlarini olish mumkin.

Suv osti arxeologiyasi Departamenti Misr Qadimiyati oliy kengashi huzurida XIX asrn oxirida faoliyat ko’rsatayotgan bo’lsada 1996 yildagina tuzulgan maskur Departamentining tuzilishiga sabab Kayt-Bey ko’rfazida 1995 yilda va 1996 yil Aleksandiriyaning sharqiy qismidagi suv ostida podsholar turar joylari qolidiqlari topilishi bilan bog’liqdir aynan manashu voqiya Misr suv osti arxeologiyasining paydo bo’lish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotlar jarayonida yani 1962 yilda suv ostidan Isida Forosskaya ilohasining mahobatli haykalini topilishi bilan tadqiqotlar ko’lami kengaydi. Misr suv osti arxeologiyasi departamenti tuzulgunga qadar ham bir qancha kishlar tamonidan turli ashyolar topilib o’rganilgan 1910 yilda firansuz

muhandisi Gaston Jand Aleksandiriya portining sharqiy qismini tadqiq qilish jarayonida birinchi marta qadimiy kemalar turar joyi qolidiqlari topildi. 1933 yilda ingiliz uchuvchisi Keyt-Beydan 30 kilometir sharqda joylashgan Abu-Kir ustidan uchib o’tib suv ostida qandaydir inshoat qoldiqlarini eslatib o’tadi. Havaskor akvalang shaxzoda Amar Tusun 1933 yil 5 mayda maxsus ekispeditsiya tuzib maskur hududda tadqiqot ishlarinio’tkazadi ekispeditsiyaning birinmchi kunidayoq marvardan qilingan Aleksandir Makedoniskining haykalini bosh qismi topilgan ushbu topilma qirg’oqdan 450 metir va dengiz tubidan 5metir chuqurlikda topilgan 1933 yilning yoz oylari davomida Shaxzoda Umar va yordamchilari suv ostida qolib ketgan va yaxshi saqlangan ikkita jqadimiy shahar qolidiqlarini topishadi mil.avv. V asr o’rtalarida Misrda bo’lgan buyuk tarixchi Geradot sayohati davomida bu yerda gulab yashnagan ikkita shahar Menutes va Geraklion shaharlarini eslab o’tadi yer ustida bu shaharlardan hech qanday iz qolmagan shu sababdan qadimgi manbalarda suyangan holda Tusan Menutes shahari o’rnini aniqlash va suv ostida qolgan ibodatxona qoldiqlarini, shuningdek Geraklion shaharining joylashgan o’rni aniqlash imkonini beradi.

O’rtadagi uzoq tanafusdan so’ng XX asrning 60 yillarida arxeologik tadqiqotlarda yangi davir boshlanadi 1961 yilda havaskor arxeolog Kamol Abu- El-Saodat Keyt- Beyni foprtida uncha uzoq bo’lmagan suv ostida nomalum inshoatlar qoldiqlarini topadi 1962 yilda tadqiqotlarni davom etirib hamkor sifatida Misr harbiy dengiz kuchlari yordami bilan Ellen davriga taluqli odam bo’yi barovar qilib giranitda yasalgan erkak haykali suv ostida olib chiqildi oradan besh oy otib Keyt-Beyda unchalik uzoq bo’lmagan joyda akvalandlar Isida- Farosskayaning haykalini topadi Isidaning 7 metir haykali ham giranitdan qilingan. Haykal topilgan joydan 33 yil oldin ham haykal topilgan edi.

Abu el-Saodat Kayd-Bey (Faros) rayoni, sharqiy ko’rfaz (Antirados oroli) shuningdek Sil-Sil va Shatba hududlarning muxtasar pilani tuzilib qayerlarda qazuv ishlari olib borilishizarurligi haqida tasvurga ega bo’ldi. Izlanishlar jarayonida qadimiy qurilish qolidiqlari, giranit ustunlari, Sarkofaga va tangalar topilgan shuningdek Abu-Kir qo’ltig’idagi Napaliyo kemalari qolidig’lari shuningdek Amur Tusun tadqiq etgan ikkita shahar xaritaga kiritiladi 70-80 yillarda suv osti izlanishlari davom etadi. Aleksandiriyadan sharqda va Abu-Kirdan 5 kilometir Mamur shahri yaqnida suv ostida 250 metir uzunlikdagi inshoat qoldig’i va toshdan qilingan langar topiladi. Topilgan ashyolar va tuzilgan xarita Aleksandiriyadagi yuno-Rim muzeyiga topshiriladi. Abu el-Saodat o’zining hayotlik chog’ida mohir akvalandlar sifatida balki ekispert sifatida ham Aleksandiriya hududidagi bir nechta

ekispeditsiyalar tarkibiga qo'shilgan. 1968 yildan boshlab suv osti arxeologiyasi yirik mutaxasis Onor Firost rahbarligidagi Yunesko ekispeditsiyasiga azoligiga olingan.

1983 yil Jak Duyuma rahbarligidagi ekispeditsiya hamda Firansuz va Misr dengiz harbiy kuchlari hamkorligida Abu-Kir ko'rfazi 11 metir chuqurlikdan Napaliyon filotiga tegishli bo'lgan L'Orient nomli kema qoldig'lari chiqarib olinadi.

1983-1984 yillarda ular tamonidan tashkil etilgan ekispiditsiya nomli uchta kema tadqiq etiladi 1986 yilda Aleksandiriyaning g'rbida joylashgan Agam deganhududda Le Patriote deb nomlangan chokib ketgan kemada tadqiqot ishlari boshlandi kema El-Fara deb nomlangan Rifning g'rbiy qismida 4 metir chuqurlikda bo'lgan suv osti arxeologik izlanishlar jarayonida tila, kumush va bironza tangalari, arteleriya qurollari,mushketlar va patronlar topiladi. L'Orient kemasi g'arq bo'lgan joyda kemaning ro'l qismi odamlarga taluqli bo'lgan turli xildagi taqinchoqlar, oyoq kiyimlari shuningdek idish tovoqlar sopoldan qilingan vino idishlari, shisha filaklar va boshqa ko'plab ashyolar topilgan.

Misr hududida so'ngi 7 yil davomida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida suv osti arxeologiyasi sohasida alohida ko'zga ko'rinali ishlarni amalga oshirildi ularni topilgan topilmalarining joylanish o'rniga qarab 7 guruhga bo'lish mumkin.

**1.Keyt-Bey rayoni:** Aleksandiriyani tadqiq etish markazi,suv osti arxeologiyasi departamenti va qadimiyat davrini o'rganuvchi yuqori kengashning hamkorlikdagi ekispiditsiyasi Keyt-Bey fortining sharqiy qisimlari 2,25 gektarli maydon va 6-8 metirli chuqurlikdagi hududda 3000 dan ortiq turli xil obektlar jumladan, har xil haykallar binolarning kalonalari kapiteliylar va boshqa narsalar topilgan topilmalarning umumiy og'irligi 75 tonani tashkil qilgan ashyolarning asosiy qismi Yunon-Rim bosqichiga taluqli bo'lib asosan giranit, kvarts va marmardan qilingan shu bilan birgalikda ilk Firavinlar davriga oid topilmalar ham uchun oid arxeologlarning taxminiga ko'ra ushbu ashyolar yangi poytaxtni bezatish uchun mamlakatning turli hududlaridan keltirilgan suv ostida olingan topilmalar asosan Aleksandiriyadagi Rim amfiy tiyatirida saqlanmoqda.

**2.Aleksandiriyaning sharqiy qismi**: suv osti arxeologiya departamenti va qadimiyat oliy kengashi bilan yevropa suv osti arxeologiyasi inistituti (IEASM) hamkorligida tepagirafiya tadqiqotlar va arxeologik qazuv ishlari olib borildi 5 yil davomida olib borilgan tadqiqotlar quydagi natijalarni berdi:

1) Antirados orollari,reflar o'rganildi va tadqiq etildi.

2)Temuniun yarim oroli shuningdek Antirados orolidan antik davir inshoatlari qoldiqlari topilgan.

3) 1000 yaqin turli ashyolar suv ostidan chiqarib olingan.

4)Antirados oroliga yaqin hududda yaxshi saqlangan Rim imperiyasiga taluqli yuk kemasi topildi kemada olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari jarayonida ikkita tila uzuk, sopoldan qilingan gema (muhir) shuningdek tangadan qilingan ko'plab topilmalrni kiritish mumkin .

**3.Aleksandiriyaning sharqiy qirg'oqlari**: 1997 yilda suv osti arxeologiya departamenti va Misr qadimiyat oliy kengashi Silsil ko'rfazida Pitalameylar davriga oid diniy majmua hududida uncha katta bo'lmagan 30 x 400 metirga teng bo'lib asosan ustunlar va ikkita tobut (sakofag) topildi Ibraxaynuiya Rifening atroflaridako'plab qurulishga ishlatilgan to'rtburchak va to'g'ri to'rtburchakli toshlar hamda sopol buyumlari, asosan anforalar ko'plab uchraydi.

**4.1999 yil oktiyabr oylarida Key-Beyning sharqiy qismida**: Mamurdan 5 kilometir g'rbda arxeologik izlanishlar davom etirildi tadqiqotlar jarayonida 100 ta amfora, kemaning langari topilgan langarlarning og'irligi 180-230 kilogramgacha bo'lgan.

**5.Abu-Kir ko'rfazi:** 1998 yilda yevropa suv osti arxeologiyasi inistituti suv osti departamenti va Misr qadimiyati oliy kengashi bilan hamkorlikda L'Orent kemasining cho'kib ketgan joy atroflarida tadqiqot ishlari davom etirildi topilgan topilmalr Napaliyon armiyasiga taluqli ko'plab ashyolar shuningdek Malta , Ispaniy, Partugaliy, Firansiy,Misr, Avstiriya va Istanbulda zarb etilgan 230 taga yaqin tila tangalr topilgan. Abu-Kir ko'rfazida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida suv ostida qolib ketgan Menetis va Geraklion nomli antik davir shaharlari topildi qazishmalar jarayonida ko'plab haykallar, binolar va ibodatxonalar qoldiqlari Vizantiya va ilk islom davriga taluqli taqinchoqlar tila tangalar topildi ushbu hududlarda tadqiqot ishlari davom etirilmoqda.

**6.Shimoliy-g'arbiy qirg'oqlari:** 1995 yillarda dengiz arxeologiyasi inistuti Misrlik hamkasblari bilan birga o'rta yer dengizi qirg'oqlaridan Mars- Matruga tamon sharqiy tamonlarida kuzatuv ishlari olib borilgan tadqiqotlar jarayonida mil. avv. II asrlarda milodiy III asrlargacha bo'lgan davir bilan davirlashtirilgan amforalar topiladi shu tariqa maskur tadqiqotlar natijasida O'rt yer dengizining Misr bilan chegaradosh hududlari haqidagi dastlabki tarixiy tasavurlar hosil qilinadi.

7.**Qizil dengiz hududi:** 1994 yilda Misr suv osti arxeologiyasi inistituti Qizil dengizda tadqiqot ishlarini olib borildi Saadana oroli hududdida (Curgadidan 18 kilometir janubda joylashgan ) XVIII asrda cho'kib ketgan kema topilib o'rganildi 1995-1997 yildagi suv osti qazuv ishlari jarayonida chini va sopoldan qilingan idishlar kofe va kakos donalari topilgan cho'kib ketgan kemaning uzunligi 50 metir eni esa 15 metir bo'lib 900 tonagacha yuk ko'taradigan yuk kemasi ekanligi aniqlandi va o'rganilib chiqildi.

Umuman olinganda Misr hududidagi suv ostida qolib ketgan yodgorliklar talon-taroj qilishdan va buzilishlardan xoli bo'lgan ular tadqiq etishda tizimlilik, uyushganlik va ilmiylik xususiyatlariga katta etibor qaratmoqda XX asr arxeologiya tarixida "oltin asr" bo'ldi: Tiroya Tutanhamon daxmasi, Xitoydagi maqbaralar majmuasi, Kinass saroyi, Amerika hindulari piramediyalarining ochilishi yerning qadimiy tarixi qay darajada boy ekanligini odamlar ko'z o'ngida namoyon bo'ldi.

Arxeologiyaning turli sohalarda bo'lgani singari suv ostida ham izlanishlar olib borilmoqda 2000 yilning iyunida Yevropa suv osti arxeologiyasi inistutining xodimi Firank Gadio Misrning Abu-Bakir ko'rfazining birqancha hududlariga tadqiqot ishlarini olib borildi natijada suv osti arxeologik izlanishi davomida ikkita qadimiy shahar topilganini rasman e'lon qilindi bu shaharlar Aleksandiryadan bir necha kilometir narida joylashgan edi.

**Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, *1*(6), 47-53.
2. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).
3. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 28-41.
4. Davron O'g'li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 600-605.
5. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, *1*(6), 90-101.
6. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O 'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI:

REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 11-27.

7. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 606-612.

8. Davron o'g'li, A. D. (2025). O 'RTA OSIYO KO 'CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O 'RGANILISHI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(8), 100-113.

9. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 613-619.

10. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, *1*(6), 47-53.

11. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In International Educators Conference (pp. 207-212).

12. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 82-90.

13. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 91-98.

14. Alibekov, U., & Rayimjonov, I. (2024). TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI XIX ASR SHARQSHUNOSLARINING TALQINIDA. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 267-270.

15. Xoshimjon o'g'li, R. I. (2024). 8.4 MOVAROUNNAHRGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UYG 'ONISH DAVRINING BOSHLANISHI. Innovative technologies in construction Scientific Journal, 8(1), 12-15.

16. Rayimjonov, I. X. O. G. L. (2022). ERSHI (MINGTEPA) HUDUDIDAGI TARIXIY-ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI XUSUSIDA. Scientific progress, 3(5), 193-197.

17. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT

CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 5(12), 16-21.

18. Xoshimjon o'g'li, R. I., Isoqovich, A. A., & Ravshanovna, K. L. (2025, May). THE INNOVATIVE DIGITAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 355-362).

19. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

20. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *5*(12), 16-21.

21. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *4*(11).

22. Ma'rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O'RTA OSIYODA MUSIQA SAN'ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).

23. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA'RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 160-165.

24. MA'RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUz*, *1*(1.2. 1), 23-26.

25. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *6*(01), 4-7.

26. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, *7*(11), 68-72.

27. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *4*(2), 1-6.

28. Ma'rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).

29. Komil o'g, M. R. S., & Eshmurza o'g'li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 620-623.

30. Sherzod, M. R. ANALYSIS OF NEW RESEARCHES CARRIED OUT IN MEDIEVAL ARCHEOLOGICAL MONUMENTS IN THE TERRITORY OF SYRDARYA REGION.

31. Сулаймонович, Қ. С. (2024). КУЮК-ТЕПА–ҚАДИМГИ ФАРҒОНА ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШДАГИ МУҲИМ ЁДГОРЛИК. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *7*(11), 60-66.

32. Qosimova, E. T., & Gulchehra, A. (2025). JADID MA'RIFATPARVARLARI: MILLIY MEROSI VA SIYOSIY QARASHLARNING UYG 'UNLIGI. *Наука и инновации в системе образования*, *4*(4), 46-53.

33. Abdulxay, G., & Abdullayev, A. (2025). O 'ZBEKISTON SSR DA MA'MURY BUYRUQBOZLIK TIZIMI O 'RNATILISHI VA MUSTAHKAMLANISHI. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, *4*(5), 74-81.

34. Абдулҳай, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). *INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS",(1)*, 56-60.

35. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *3*(1).

36. Abdulxay, G. U., & Gadoyeva, K. (2025). XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING TURMUSHI VA MADANIYATI. *Наука и инновации в системе образования*, *4*(4), 40-45.

37. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *2*(5), 61-65.

38. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 6), 426-431.

39. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim,(3 (18)).*

40. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, *4*(4), 35-39.

41. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *5*(12), 16-21.

42. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

43. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

44. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 78-81).